

2024-yil yanvar-iyul oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi qisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(66) 235-65-80



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 665,0 mln. AQSh** dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **129,1 mln. AQSh** dollariga yoki **8,4 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollar)



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **1 665,0** **+8,4 %**
(2023-y. **1 535,9**)



Saldo

2024-y. **- 774,7**
(2023-y. **- 835,3**)



Eksport

2024-y. **445,1** **+ 27,1 %**
(2023-y. **350,3**)



Tovarlar: **411,9**



Xizmatlar: **33,2**



Import

2024-y. **1 219,9** **+2,9 %**
(2023-y. **1 185,6**)



Tovarlar: **1 216,9**



Xizmatlar: **3,0**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.













TSAda eksport hajmi **445,1** mln. AQSh dollariga (**27,1** % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 219,9** mln. AQSh dollariga (**2,9** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **774,7** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024-yil yanvar-iyul mln. AQSh dollari va ulushi, foizda)



<p>Rossiya</p> <p>TSA – 435,3</p> <p>Eksport: 157,9 Import : 277,4</p> <p> 26,1 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 345,4</p> <p>Eksport: 48,4 Import: 297,0</p> <p> 20,7 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 131,6</p> <p>Eksport: 48,8 Import: 82,8</p> <p> 7,9 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 125,6</p> <p>Eksport: 25,8 Import: 99,8</p> <p> 7,5 %</p>	<p>Sloveniya</p> <p>TSA – 86,8</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 86,8</p> <p> 5,2 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 47,1</p> <p>Eksport: 3,2 Import: 43,9</p> <p> 2,8 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 39,3</p> <p>Eksport: 33,8 Import: 5,5</p> <p> 2,4 %</p>	<p>Hindiston</p> <p>TSA – 30,7</p> <p>Eksport: 2,9 Import: 27,8</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Polsha</p> <p>TSA – 30,6</p> <p>Eksport: 1,4 Import: 29,2</p> <p> 1,8 %</p>	<p>BAA</p> <p>TSA – 27,0</p> <p>Eksport: 21,0 Import: 6,0</p> <p> 1,6 %</p>













SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federatsiyasi	265,8	348,5	435,3
 <i>Eksport</i>	70,1	107,6	157,9
<i>Import</i>	195,7	240,9	277,4
Xitoy Xalq Respublikasi	200,0	354,6	345,4
 <i>Eksport</i>	27,6	26,7	48,4
<i>Import</i>	172,4	327,9	297,0
Qozog'iston	213,2	181,1	131,6
 <i>Eksport</i>	63,4	64,1	48,8
<i>Import</i>	149,8	117,0	82,8
Turkiya	105,3	105,3	125,6
 <i>Eksport</i>	42,2	21,2	25,8
<i>Import</i>	63,1	84,1	99,8
Sloveniya	24,6	24,9	86,8
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	24,6	24,9	86,8
Germaniya	29,8	26,9	47,1
 <i>Eksport</i>	1,4	3,0	3,2
<i>Import</i>	28,4	23,9	43,9
Tojikiston	38,3	39,5	39,3
 <i>Eksport</i>	33,8	34,0	33,8
<i>Import</i>	4,5	5,5	5,5
Hindiston	34,9	21,6	30,7
 <i>Eksport</i>	0,4	1,6	2,9
<i>Import</i>	34,5	20,0	27,8
Polsha	15,3	28,9	30,6
 <i>Eksport</i>	6,1	1,4	1,4
<i>Import</i>	9,2	27,5	29,2
BAA	3,2	56,3	27,0
 <i>Eksport</i>	1,8	9,0	21,0
<i>Import</i>	1,4	47,3	6,0




Davomi

	Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
	Yaponiya	49,5	18,8	24,7
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	49,4	18,8	24,7
	Qirg'iz Respublikasi	25,5	16,4	24,2
	<i>Eksport</i>	23,3	13,7	22,2
	<i>Import</i>	2,2	2,7	2,0
	Litva	20,6	19,5	22,5
	<i>Eksport</i>	4,8	2,1	0,7
	<i>Import</i>	15,8	17,4	21,8
	Eron	22,7	22,4	21,0
	<i>Eksport</i>	4,4	3,0	3,9
	<i>Import</i>	18,3	19,4	17,1
	Latviya	17,2	18,2	19,9
	<i>Eksport</i>	1,0	0,8	0,5
	<i>Import</i>	16,2	17,4	19,4
	Gruziya	14,8	13,9	19,6
	<i>Eksport</i>	4,1	4,2	4,0
	<i>Import</i>	10,7	9,7	15,6
	Afg'oniston	23,5	10,5	18,3
	<i>Eksport</i>	23,0	9,6	16,7
	<i>Import</i>	0,5	0,9	1,6
	Ozarbayjon	9,7	54,4	16,9
	<i>Eksport</i>	9,1	7,8	14,4
	<i>Import</i>	0,6	46,6	2,5
	Italiya	9,6	14,3	15,3
	<i>Eksport</i>	3,9	2,8	1,2
	<i>Import</i>	5,7	11,5	14,1
	Bangladesh	9,5	10,1	12,7
	<i>Eksport</i>	0,4	0,0	0,0
	<i>Import</i>	9,1	10,1	12,7



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI


(2024-yil yanvar-iyul, mln. AQSh doll. ¹)



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (58,5 % yoki 973,7 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,2 % yoki 2,8 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



2024-yilning yanvar-iyul oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **40,9** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davrida **43,8** % ni tashkil etgan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-iyul oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan **14,1** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **59,1** % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, **680,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **291,4** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **389,3** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

Rossiya

TSA – 435,3
Eksport – 157,9
Import – 277,4



Qozog'iston

TSA – 131,6
Eksport – 48,8
Import – 82,8



Tojikiston

TSA – 39,3
Eksport – 33,8
Import – 5,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 24,2
Eksport – 22,2
Import – 2,0



Ozarbayjon

TSA – 16,9
Eksport – 14,4
Import – 2,5



Belarus Respublikasi

TSA – 11,4
Eksport – 4,9
Import – 6,5



Ukraina

TSA – 10,8
Eksport – 3,5
Import – 7,3



Turkmaniston

TSA – 8,4
Eksport – 4,4
Import – 4,0



Moldova

TSA – 2,0
Eksport – 1,4
Import – 0,6



Armaniston


TSA – 0,9
Eksport – 0,3
Import – 0,6




Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (63,9 %), Qozog'iston (19,3 %) hamda Tojikiston (5,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA AZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga azo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **603,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **234,2** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **369,2** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **445,1** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan **127,1 %** ni tashkil etgan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST¹ BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyul, ulushi foizda)



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-iyul, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	350,3	445,1	100,0	127,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	122,5	146,8	111,9	119,8	35,0	33,0
Ichimliklar va tamaki	3,4	0,5	98,1	14,8	1,0	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,1	11,8	58,9	129,9	2,6	2,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,5	14,1	127,5	2,2 m.	1,9	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	5,0	9,2	41,9	184,5	1,4	2,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2,9	5,6	17,2	190,7	0,8	1,2
Sanoat tovarlari	100,9	134,9	82,8	133,8	28,8	30,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	48,1	65,0	163,3	135,2	13,7	14,6
Turli xil tayyor buyumlar	32,1	24,0	118,1	74,5	9,2	5,4
Xizmatlar	19,8	33,2	2,1 m.	167,8	5,6	7,5

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **92,5 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**33,0 %**), sanoat tovarlari (**30,3 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,4%**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-iyul)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	146,8	119,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Sabzavotlar va mevalar	105,2	106,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	12,1	82,8
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	7,3	145,2
Ichimliklar va tamaki	0,5	14,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	0,5	14,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	11,8	129,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	9,0	184,3
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	1,6	74,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,1	2,2 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	14,1	2,2 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	9,2	184,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simliklar moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	9,2	184,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5,6	190,7
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3,1	9,2 m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	0,6	60,8

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, %
Sanoat tovarlari	134,9	133,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Cho'yan va po'lat	62,5	190,2
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	41,9	90,9
Rangli metal	18,5	150,0
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9,0	114,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	65,0	135,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Avtomobillar	56,7	135,4
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	4,4	112,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2,8	159,7
Turli xil tayyor buyumlar	24,0	74,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	20,0	72,3
Poyafzal	2,7	87,0
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,9	148,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	42,1
Xizmatlar	33,2	167,8
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Turizm xizmatlari	14,1	182,4
Transport xizmatlari	12,7	155,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlariga **291,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **65,5 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024-yilning yanvar-iyul oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **35,5 %**) va Qozog'iston (**11,0 %**) davlatlari yetakchilik qildi. Ulushi yuqori bo'lgan yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **80,5 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024-yil yanvar-iyul, %)






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI, (yanvar-iyul)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya Federatsiyasi	107,6	157,9	153,6	146,7	1	1
Qozog'iston	64,1	48,8	101,0	76,2	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	26,7	48,4	96,8	181,2	4	3
Tojikiston	34,0	33,8	100,8	99,4	3	4
Turkiya	21,2	25,8	50,3	121,8	5	5
Qirg'iz Respublikasi	13,6	22,3	58,5	163,4	6	6
BAA	9,0	21,0	5,1 m.	2,3 m.	9	7
Afg'oniston	9,6	16,7	41,5	174,3	8	8
Ozarbajon	7,7	14,4	84,8	186,1	10	9
Belarus Respublikasi	9,8	4,9	111,2	49,9	7	10
Turkmaniston	3,4	4,4	134,3	129,2	13	11
AQSH	2,7	4,1	100,3	151,8	17	12
Gruziya	4,2	4,0	103,4	95,4	12	13
Eron	3,1	3,9	70,0	127,5	14	14
Ukraina	2,4	3,4	109,5	140,8	18	15
Germaniya	3,0	3,1	2,1 m.	104,8	15	16
Hindiston	1,6	2,9	4,1 m.	187,5	22	17
Iroq	1,8	1,9	186,2	105,5	21	18
Polsha	1,4	1,4	23,7	93,6	24	19
Moldova	1,0	1,3	135,9	132,0	26	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024-yil yanvar-iyul, mln. AQSh doll. ¹)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **44,3 %** ulush bilan **197,2** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Nurobod tumani **0,1 %** ulush bilan **0,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-iyul oylarida **86,8** mln. AQSh dollarlik **93,8** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023-yilning mos davriga nisbatan **9,3** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**39,9** %), XXR (**11,2** %), Turkiya (**10,7** %), hamda Ozarbayjon (**5,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024-yil yanvar-iyul, qiymatga nisbatan o'sish sur'atlari)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024-yil yanvar-iyul)

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, %
 Rossiya Federatsiyasi	33,9	34,7	39,9
 Xitoy Xalq Respublikasi	10,2	9,8	11,2
 Turkiya	5,1	9,2	10,7
 Ozarbayjon	2,8	4,9	5,7
 Gruziya	3,8	3,6	4,2
 Belarus Respublikasi	3,7	3,6	4,2
 Ukraina	2,9	2,8	3,3
 Qozog'iston	9,9	2,7	3,2
 Eron	2,6	2,6	3,0
 Iroq	5,9	1,9	2,1
 Germaniya	0,5	1,5	1,7
 BAA	4,3	1,4	1,6
 AQSh	0,3	1,3	1,5
 Polsha	1,0	1,0	1,1
 Braziliya	0,9	1,0	1,1
 Boshqa davlatlar	6,1	4,8	5,5



¹ qiymat ifodasidan

2024-yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **39,9** %), bu XXR eksport hajmidan **28,7** % ga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-iyul oylari yakuni bo‘yicha **37 301,9** ming AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **8,4** % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur‘ati **70,9** % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**52,3** %), Gilam mahsulotlari (**20,8** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **82** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **25** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, ming AQSh dollari)


		2023-yil	2024-yil
Jami		52 636,8	37 301,9
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari	27 408,1	19 496,8
	Gilamlar	8 361,0	7 757,8
	Ipak va ipak mahsulotlari	7 399,6	2 917,1
	Naqshli mato	4 074,1	2 381,1
	Paxtadan gazlamalar	1 786,0	393,5
	Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	3 608,0	4 355,6

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



Xizmatlar eksporti hajmi **33,2** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **7,5** % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **67,8** % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) xizmatlari (**42,5** %), transport xizmatlari (**38,3** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**10,8** %), moliyaviy xizmatlar (**8,3** %) hissasiga to'g'ri kelgan. Bu oyda boshqa ish bilan bog'liq xizmatlar amalga oshirilmagan.




SAMARQAND VILOYATINING IMPORT



2024-yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi **1 219,9** mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan **102,9 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**32,8 %**), kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**27,4 %**) hamda sanoat tovarlari (**22,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024-yil yanvar-iyul, ulushi foizda)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **33,2** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **1 051,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **3,0** mln. AQSh dollariga yetdi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-iyul)

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Jami import	1 185,6	1 219,9	125,0	102,9	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	102,7	113,0	101,6	110,1	8,7	9,3
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,5	62,1	9,5 m.	0,0	0,04
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	35,1	36,3	68,2	103,6	3,0	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	26,6	18,4	177,8	69,2	2,2	1,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	22,2	19,6	197,2	88,2	1,9	1,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	271,5	333,7	117,1	122,9	22,9	27,4
Sanoat tovarlari	274,8	270,7	109,1	98,5	23,2	22,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	423,9	400,7	161,4	94,5	35,8	32,8
Turli xil tayyor buyumlar	26,9	24,0	126,6	88,9	2,3	2,0
Xizmatlar	1,8	3,0	112,6	162,1	0,2	0,2



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024-yil yanvar-iyul)


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	113,0	110,1
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar	38,0	123,5
Meva va sabzavotlar	31,8	191,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	17,5	43,9
Tirik hayvonlar 03 bo'limdagilarni qo'shgan holda	5,9	81,9
Ichimliklar va tamaki	0,5	9,5 m.
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Ichimliklar	0,5	9,5m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	36,3	103,6
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	11,6	92,0
Probka va yog'och-taxtalar	8,3	90,4
Qog'oz massasi va makulatura	5,1	139,3
To'qimachilik tolalari	3,0	2,4 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	18,4	69,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	16,9	68,3
Ko'mir, koks va briketlar	1,5	80,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	19,6	88,2
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	19,2	90,2
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	42,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	333,7	122,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	221,7	136,3
Birlamchi shakldagi plastmassalar	50,0	116,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	23,9	113,8

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, %
Sanoat tovarlari	270,7	98,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Cho'yan va po'lat	163,8	106,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	43,8	98,5
Metalldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	15,7	94,7
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	14,5	64,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	400,7	94,5
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	119,6	165,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'jallangan mashinalar	75,4	59,8
Boshqa transport uskunalari	79,0	90,0
Turli xil tayyor buyumlar	23,9	88,9
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli mahsulotlar		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	8,9	81,8
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	7,6	92,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	4,0	101,2
Poyabzal	1,4	88,0
Xizmatlar	3,0	162,1
shu jumladan: ayrim yuqori hajmli xizmatlar		
Transport xizmati	2,8	156,4

2024-yil yanvar-iyul oylarida MDH mamlakatlari import ulushi **31,9 %** ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2023-yilning mos davrida **36,2 %** ni tashkil etgan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024-yil yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyati **87** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Sloveniya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, va Polsha) jami importning **75,1 %** ulushini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, (2024-yil yanvar-iyul,) foizda






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyul)

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy Xalq Respublikasi	327,9	297,0	190,2	90,6	1	1
Rossiya Federatsiyasi	240,9	277,4	123,1	115,1	2	2
Turkiya	84,1	99,8	133,3	118,7	4	3
Sloveniya	24,9	86,8	101,2	3,5 m.	8	4
Qozog'iston	117,0	82,8	78,1	70,7	3	5
Germaniya	23,9	43,9	84,3	184,0	9	6
Polsha	27,5	29,2	3,0 m.	106,6	7	7
Hindiston	20,0	27,8	58,0	138,7	10	8
Yaponiya	18,8	24,7	38,0	131,6	12	9
Litva	17,4	21,8	109,8	125,7	14	10
Latviya	17,4	19,4	107,4	111,3	13	11
Eron Islom Respublikasi	19,4	17,1	105,6	88,1	11	12
Gruziya	9,7	15,6	90,3	160,9	18	13
Italiya	11,5	14,1	2,0 m.	122,4	15	14
Bangladesh	10,1	12,7	111,3	125,7	17	15
Niderlandiya	11,3	10,1	109,3	89,2	16	16
Shveytsariya	3,1	8,6	60,0	2,8 m.	33	17
Avstriya	7,1	8,4	178,4	117,8	20	18
Tailand	1,5	7,8	21,1	5,1 m.	40	19
Fransiya	6,0	7,7	111,9	126,9	23	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024-yil yanvar-iyul)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **63,7 %** ulush bilan **776,5** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,1 %** ulush bilan **1,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-iyul, hajmi mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **3,0** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **62,1** % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**94,3** %) va safarlar (**5,0** %) boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,04** %) ga tegishli bo'ldi.




Xizmatlar importida eng yuqori hajm transport xizmatlari **2,8** mln. AQSh dollarini yoki **94,3** % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan **5,7** % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **270,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **98,5 %** ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **22,2 %** ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024-yil yanvar-iyul, ulushi foizda)

127,1 mln. AQSh doll.
ulushi – 47,0 %



Rossiya
Federatsiyasi

64,5 mln. AQSh doll.
ulushi – 23,8 %



XXR

25,7 mln. AQSh doll.
ulushi – 9,5 %



Qozog'iston

24,8 mln. AQSh doll.
ulushi – 9,1 %



Turkiya

11,8 mln. AQSh doll.
ulushi – 4,3 %



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan va po'lat (**163,8** mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**43,8** mln. AQSh dollari), metalldan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tasniflanmagan (**15,7** mln. AQSh dollari), Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**14,5** mln. AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Тел. 66-235-65-80